

Бухоро давлат университети магистрантларининг илмий мақолалар тўплами



2016

# ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ МАГИСТРАНТОВ \* COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES OF BUKHARA STATE UNIVERSITY POST-GRADUATE STUDENTS



<b>ТУРИЗМ (ХАЛҚАРО ВА ИЧКИ ТУРИЗМ)</b>	
FARMANOV E. Buxoroda turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari .....	138
DJAFAROVA N.A. Turizm statistikasining vujudga kelishi va uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni .....	142
RUZIYEVA G.F. O'zbekistonda turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratishning ahamiyati va amaliy asoslari .....	145
ДЖАББАРОВ И. Перспективы использования мобильных технологий в индустрии гостеприимства .....	148
РАХМАТОВ F.B. O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishda ekoturizmning o'rni .....	151
KURBANOVA M.X. Hududiy turizmda mavsumiy nomutanosiblikni kamaytirishning talabga bog'liq jihatlari .....	152
IBRAGIMOV N.S., QILICHOV M.H. Ijtimoiy turizmning nazariy asoslari va xalqaro tajriba .....	155
QILICHOV M. H. Ichki turizmni rivojlatirishda mavjud resurslardan foydalanish istiqbollari. "og'itmaning issiq tarovati"-rekreatsion loyihasi .....	160
UMIROV J. Turizmda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning strategik yo'nalishlari .....	162
SHARIFOVA SH. Backpackerlar kim va ular yoshlar turizm bozorida qanday o'rin tutadi? .....	165
<b>ИХТИОЛОГИЯ ВА ГИДРОБИОЛОГИЯ</b>	
YULDOSHOV L.T., TESHAYEVA D.R. Buxoro viloyati zarafshon baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida o'suvchi mikroskopik va yuksak suv o'simliklari .....	174
<b>КИМИЁ</b>	
СЕВИНЧОВ Н.Г., ҒАНИЕВ Б. Абу Наср Форобий – қомусий олим, "Шарқ Аристотели" .....	168

2. Amerika – Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika mamlakatlari, orolda joylashgan davlatlar hamda Karib havzasi hududlari.
  3. Osiyo - Tinchokeani – Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya.
  4. Afrika – Afrika mamlakatlari, Misr va Liviyadan tashqari.
  5. Janubiy Osiyo – Janubiy Osiyoning barcha davlatlari.
  6. Yaqinsharq – G'arbiy va Janubi-G'arbiy Osiyo, Misr va Liviya.
- Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanib borayotgan turizm sohasida vujudga kelayotgan kuchli raqobatga bardosh berish uchun milliy, xalqaro hamda hudud turizmga oid axborotga talab mavjuddir. Shu sababli, turizm sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlarning ahamiyati kunga-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, unga ehtiyoj nafaqat milliy turistik boshqarmalarda, balki ko'pgina manfaatdor guruhlar: mahalliy boshqaruv organlari, ilmiy doiralar, xo'jalik tashkilotlarida yuqoridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. - М.: Аспект Пресс, 2002.
2. Александрова А.Ю. СТАТИСТИКА ТУРИЗМА. Учебник. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. — 464 с.
3. Основы туристской деятельности: Учебник/ Г.И. Зорина, Е.Н. Ильина, Е.В. Мошняга и др.; Сост. Е.Н. Ильина – М.: Советский спорт, 2004.
4. Самойленко А.А. География туризма: Учеб. пособие. – Ростов н/Д: «Феникс», 2006.
5. [www.prorobot.ru/referats/r04/prorobot.ru-04-0009.doc](http://www.prorobot.ru/referats/r04/prorobot.ru-04-0009.doc)
6. <http://media.unwto.org/ru/press-release/2016-01-19/chislo-mezhdunarodnykh-turistskikh-pribytii-v-2015-godu-vozroslo-na-4-i-dos>

### O'ZBEKISTONDA TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR YARATISHNING AHAMIYATI VA AMALIY ASOSLARI

*RUZIYEVA GULINOZ FATILLOYEVNA (BuxDU magistr talabasi)*

**ANNOTATSIYA:** maqolada O'zbekistondagi mavjud erkin iqtisodiy hududlarni o'rgangan holda, dunyo tajribasiga asoslanib turistik erkin iqtisodiy hududlar barpo etishning amaliy asoslari yoritilgan.

Turizm sohasi bugungi kunda ravnaq topib borayotgan sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Nafaqat butun dunyoda, balki respublikamizda ham bu soha keng rivoj topmoqda. O'zbekiston Yevroosiyo mintaqasida geopolitik joylashuvi, turistlar uchun yangi hududligi, xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Boy tabiiy, xomashyo potentsiali, bo'sh mehnat resurslarining mavjudligi, siyosiy barqarorlik hamda xalqaro avialiniyalar va aloqalari tarmog'i mavjudligi bu o'lkada turizmning hamma ko'rinishlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Rang-barang tabiiy-klimatik sharoitlar, landshaftlar va issiq iqlim turistlarni yil davomida qabul qilish imkonini beradi [ 1, 5]. Turizm sohasi uchun har tomonlama qulay bo'lgan mintaqamizda turistik erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi ham turistlar qatnovini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.


**Erkin iqtisodiy hudud (EIH)** — bu tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni odatdagiga qaraganda qulayroq qilib, aniq

belgilangan chegara va maxsus huquqiy rejim (tizim)dagi suveren mamlakatning ma'lum bir hududidir. EIH — investitsiyalarni alohida mintaqalar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslarni kam chiqindili va chiqindsiz qayta ishlovchi yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro aloqa va hamkorlikka ta'sir o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida soliqqa tortish, valyuta, bojxona va shu kabilarni tartibga solishdagi alohida tartib va shart-sharoitlar o'rnatadigan huquqiy normalar yig'indisidir. [2]

**EIH hududni eng muhim 4 ta xususiyatini** ajratish mumkin, ya'ni aniq bir territoriyaga egaligi, imtiyozlar tizimi, anklavlik holati, xo'jalik faoliyatiga davlat organlarning aralashmasligi yoki iqtisodiy erkinlikning nisbatan ko'pligi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu to'rtinchisi juda muhimdir. Busiz hududning alohidaligi ro'yobga chiqmaydi. To'g'ri, biznesmen va investorlarni qiziqitirish uchun imtiyozlar zarur, ammo mamlakatning boshqa qismiga nisbatan ular harakatida ko'proq erkinlik bo'lmasa, yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiy muhitdan farq qiladigan muhitni yaratish juda ko'p narsani talab qiladi. Biroq, buning markazida erkinlikning xususiyati, darajasi yotadi. EIHning eng muhim xususiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: «iloji boricha davlatning kam bo'lishi va bozorning esa ko'p bo'lishi».

O'zbekiston kabi endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar uchun EIH iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashning, bozor munosabatlarini rivojlantirishning, xalq farovonligini oshirishning muhim quroli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish muamolarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib I.A.Karimovning asarlari, Respublika Parlamenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan qonunlar, islohotlar, qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar xizmat qiladi. [3,5-6]

**Jahon tajribasiga asoslangan holda EIH yaratish loyahasining bosqichlari**



Jahon mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan turistik erkin iqtisodiy hududlar bir nechtani tashkil etadi. Ular Yevropa, Afrika hamda Osiyo mamlakatlari turistik hududlari hisoblanib, ularning har biri geografik joylashuviga qarab tashkil etilgan. Masalan, Ispaniyaning Molega shahri, Rossiyaning Oltoy respublikasi, Tunis erkin iqtisodiy zonasini, Xitoydagi Xaykou, Gruziyadagi Adjariya va Kobuletti erkin iqtisodiy hududlari turistlar uchun faoliyat yuritib kelmoqda.


**Ispaniyada** Malega shahri «erkin sevgi hududi» deb e'lon qilingan, maqsad: sevgi bobida erkinlik berib, ko'plab turistlarni ushbu regionga jalb qilishdan iboratdir. **Tunis** YAImning yarmini turizm bermoqda, mamlakatga 4 mln. turist keladi. Turizmga 44 ming kishi band, bundan tashqari 300 ming kishi turizmga aloqador sohalarda band. Rossiyaning Oltoy respublikasi ham turistik erkin iqtisodiy hudud bo'lib hisoblanadi.

Uning vazifasi: Rossiyadagi innovatsion o'sishni taminlaydigan - EIH yaratish. Bu orqali investorlarni jalb qiluvchi yangi mahsulotlar, texnologiyalar, yangi ish o'rinlari bilan taminlash. Maqsadi esa: dunyodagi yuqori standartlarga javob beradigan, Sharqlashgan eng zo'r EIH va kompaniyalar yaratishdir. [4]

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, TEIH yaratish mamlakatning avvalombor iqtisodiyotini oshirish uchun bevosita xizmat qiladi, mamlakat YAImdagi turizm sohasi ulushini oshiradi hamda O'zbekistonning xorijiy malakatlar bilan aloqasini yaxshilaydi.

Bugungi kunda respublikamizda "Navoiy erkin iqtisodiy industrial zona", "Angren maxsus industrial zona", "Jizzax maxsus industrial zona" kabi EIHLar tashkil etilgan. Ularning faoliyati asosan 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "ERKIN IQTISODIY ZONALAR TO'G'RISIDA"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari", "Chet elik investorlar huquqlarining kafollatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi va boshqa bir qator hujjatlar bilan tartibga solib boriladi.

EIH barpo etilishi bevosita mamlakatimizga investitsiyalar kirib kelishi va iqtisodiyotimizda ularning salmog'ini oshirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda turizm sohasining rivojlanishini o'tgan yillardagidan ko'ra har sohada rivojlanishiga erishildi.



«O'zbekturizm» milliy kompaniyasining tadqiqotlari asosida muallif ishlanmasi

Yevropa, Osiyo hamda Afrika mamlakatlari tajribalarini o'rgangan holda O'zbekistonda ham TEIH yaratish zarurati nechog'lik muhim va samarali ekanligiga yana bir bor amin bo'lish mumkin. Bir necha omillar bugungi kunda O'zbekistonda TEIH yaratish masalasini qiyinlashtirmoqda. Bular:

- Geografik joylashuvi jihatdan respublikamizning bugungi kunda turizm sohasi keskin rivojlanib borayotgan AQSh, Yaponiyalardan juda uzoqda joylashgani;
- kapital yetishmovchiligi muammosi;
- strategik resurslar muammosi bo'lib hisoblanadi.
- Bugungi kunda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish masalasi asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda quyidagi uch narsaning rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda:
  - siyosatda, erkin liberal tadbirkorlar partiyasini tashkil etish harakati;

- boshqaruvda, mahalliy boshqarish organlari, o'z-o'zini boshqarish organlarini kuchaytirish;

- iqtisodiyotda esa kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan omillarni rivojlantirish esa TEIHLarni tashkil etish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. **EIH yaratishda**, O'zbekiston uchun imtiyoz berish muhim, ammo iqtisodiy erkinlik, birinchi navbatda, tadbirkorlik faoliyati erkinligini berish o'ta muhimdir. Bu kabi erkinliklarni butun mamlakat miqyosida birdaniga berib bo'lmaydi. Buning **ikki muhim sababi** bor:

✓ butun xo'jalik mexanizmini mamlakat miqyosida tartibga solishni yo'qotish xavfining mavjudligi;

✓ jamiyatda mavjud ko'pgina institutlarning inertligi, konservativligi.

Shuning uchun ham davlat zonal siyosat yurguzib erkinlik berish masalasida qaysi soha, tarmoq yoki territoriyaga berilishini aniqlab olib, keyin imtiyozlar va engilliklarni berish kerak. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, erkinlik ma'lum bir sohaga alohida-alohida tarzda berilishi jamiyat va davlat rivojida muhim hisoblanadi. TEIHLarni yaratish esa bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib hisoblanadi.

Muallifning fikricha, TEIHLarni yaratishdan asosiy maqsad respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish, boy tarixiy obidalarimizni, qadimiy shaharlarimizni jahonga tanitish bilan bir qatorda, iqtisodiyotimizda bu soha salmog'ini oshirishdan iborat. Turistik sohaning Buxoro zonasida rivojlanishi uchun asosan turistik resurslar sonini oshirish, ya'ni faqatgina tarixiy manbalar bilan cheklanib qolmasdan yangi, turistik obyektlar barpo etish muhim hisoblanadi. Shundagina turistik erkin iqtisodiy hudud tushunchasining regionlar bo'yicha rivojlanishining ma'lum samarasiga erishgan bo'lamiz degan fikrdaman.

TEIHLar barpo etilishi uchun quyidagi takliflar bildiriladi:

- avvalambor, Buxoro shahar markazi emas, balki chekka hududlarda diqqatga sazovor joylarda turistlar oqimini ko'paytirish uchun yo'llarni ta'mirlash;
- e'tiborni nafaqat hudud tarixiy obidalariga qaratish, balki yangi binolar barpo etgan holda zamonaviy jihatdan turistik faoliyatni optimallashtirish;
- turistik bozor talabini o'rgangan holda, qanday turizm sohasiga talab kuchli bo'lsa, aynan shu sohani rivojlantirish uchun harakatlar olib borish, ya'ni xizmatni taklif etish emas, balki avvalo iste'molchilar qanday xizmatga ehtiyoj sezayotganligini o'rgangan holda uni ishlab chiqish, turizm marketingni takomillashtirish.

Xullas, **O'zbekiston, xususan, Buxoroda turizm sohasini yanada yaxshilash maqsadida**, turistik erkin iqtisodiy hudud barpo etish hamda mamlakat iqtisodiyotida turizm salmog'ini oshirish uchun turizmni mahalliy, milliy va xalqaro darajada tashkil etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allaberganov A. "Turizm faoliyatini tashkil etish"
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin\\_iqtisodiy\\_hudud](https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_iqtisodiy_hudud) [29.01.2016]
3. Hamroyev H.R. "Turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish asoslari"
4. <https://www.google.ru/url> [29.01.2016]
5. Иностраннный туризм- М: Финансы и статистика
6. O'zbekiston respublikasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish qoidalari 389